

ALBER KAMYUNING MERSO OBRAZI RUHIYATI PARANORMAL ODAM KONTEKSTIDA

Mirali G'iyosov

O'zbekiston Jahon tillari universiteti tadqiqotchisi miraligiysov99@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alber Kamyuning “Begona” asaridagi bosh qahramon Merso obrazining ruhiy holati va hissiy reaksiyalarining o'ziga xosligi tahlil qilinadi. Mersoning atrof-muhitga nisbatan befarqligi, hissiyotlarining cheklangani, hayot mazmunini inkor etishi, ijtimoiy va diniy qadriyatlardan yiroqligi orqali uning “paranormal odam” sifatidagi talqini asoslanadi. Tadqiqotda Mersoning ruhiy kechinmalari diniy e'tiqod, insoniy tuyg'ular va jamiyat tomonidan belgilangan normalar bilan qiyoslanadi. Muallif obrazning hissiy sovuqligi absurdizm falsafasining oqibati sifatida baholanib, inson hayotida ma'naviyat va e'tiqodning tutgan o'rni xulosaviy jihatdan ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Merso, Alber Kamyu, “Begona”, absurdizm, ruhiy kechinmalar, hissiy sovuqlik, diniy qadriyatlar, ekzistensializm, paranormal obraz, jamiyat va shaxs, ma'naviyat.

Badiiy asarlarning aksariyatida qahramon hayoti hikoya qilinar ekan, uning ruhiy kechinmalari ham aks ettirilib, bu esa asar ta'sirchanligini oshiradi. Biroq, Alber Kamyuning “Begona” qissasida esa buning aksini ko'rishimiz mumkin. Mersoning hikoyasida boshlangandan to yakuniga qadar ham uning ruhiy holati, ichki kechinmalari haqida deyarli so'z yuritilmaydi. Voqealar qahramon tilidan sovuqqonlik bilan shunchaki aytilgandek bayon qilinadi. Qahramon faqat jismoniy holatidan kelib chiqib vaziyatni tasvirlaydi. Faqat moddiy ne'matlardangina zavq olishini ifodalaydi. Sutli qahva, ayollar bilan munosabat, dam olish uchun turli manzillarga borishgina uning jismiga yoqadi. Ammo hatto shulardan ham Merso hech nimani his qilmaydi. Onasining vafotidan keyingi holatini “men shunchaki charchagan edim, jismoniy holatim yaxshi bo'lmasa o'zimni aksariyat shunday tutaman” deya izohlaydi. Ehtimol, risoladagidek inson ham charchoqda o'zini Merso singari tutar, biroq u xoh ayol bo'lsin, xoh erkak bo'lsin, umrining qayg'uli yoki quvonchli onlarini yashirin yoki oshkora kechinmalar, his-tuyg'ular qurshovida o'tkazadi. Erkaklar nisbatan kamroq emotsiyaga berilsalar ham, mutlaq hissiyotsiz emaslar.

Bu haqida professor E.G'oziyev o'zining “Umumiy psixologiya” qo'llanmasida emotsiyalar mavzusida quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tadi:

“Odam tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni idrok qilar ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo'lmaydi. Odamning aks ettirish jarayoni doimo faol xarakterga egadir.”²⁹

Shuningdek, Merso shaxsiyatida hech bir vaziyatga nisbatan biror hissiyotni tuyganiga duch kela olmaymiz.

Bu me'yoriy holat emasligini quyidagi ilmiy ma'lumotlar ko'rsatib bera oladi:

“Hissiyot tuyg'ularimizni o'ziga xos aks ettirish jarayoni bo'lib, bunda narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonida bizda tug'iladigan ichki kechinmalar va munosabatlar ifodalanadi.

²⁹ G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob. B.215.

Hissiyotlar o'zining yuzaga kelishi nuqtai-nazaridan odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlari bilan bog'liq bo'ladi."³⁰

Har bir shaxs uchun tegishli bo'lgan ushbu tushuncha Merso uchun huddi begonadek. Faqatgina bir vaziyat – uni o'limga hukm qilganlaridagina bosh qahramon o'zi bilan qanday voqea-yu hodisalar sodir bo'layotganini anglashni boshlaydi. Hissiyotlarning yuzaga kelishi yuqorida aytilganidek, insonning ehtiyojlari, qiziqishlari, intilishlariga bog'liq ekan yana bir holat biz uchun paranormal bo'lib tuyuladi: Mersoda ayni shular – qiziqish, ehtiyoj va intilishlar yo'q. Hatto boshlig'i tomonidan unga lavozim taklif qilinganida ham u hech bir ruhiy kechinmani boshidan kechirmaydi: faxr tuyg'usini, quvonch yoki hayajonni tuymaydi. Vaholanki, normal erkak ayol kishi singari hissiyotga beriluvchan bo'lmasa ham kasbi, moddiy taraflama yutuqlaridan hech bo'lmaganda faxrlanish hissini tuyib ko'radi. Merso uchun esa hamma narsa ma'nisiz, ahamiyatsiz va rangsiz.

Ayni shuning uchun ham yozuvchi (!) jinoyatni Selest, Raymon yoki Mason tomonidan emas, aynan Merso tomonidan sodir etadi. Qamoqxona va o'lim jazosi Merso uchun u ham bir inson ekanligini, o'zining nima uchun yashayotganini, hayotining mazmunini anglatish uchun kerak edi.

Nega aynan o'lim jazosi? Qolaversa, u arabni o'ldirib qo'ygani uchun ham emas, onasi vafotidan so'ng o'zini sovuqqon tutgani, axloqsiz munosabatlar sodir etgani, onasining tobuti tepasida qahva ichgani, sigaret chekkani, zarracha ko'zyosh to'kmagani uchun. Gap shundaki, o'z insoniy his-tuyg'ularini so'ndirgan shaxsni jamiyat ham o'z safiga qo'shishni istamadi, istamaydi. Bir insonning o'limiga beparvo bo'lgan shaxsni jamiyat ham sovuqqonlarcha o'limga hukm qildi.

Merso hatto hibsonada ham asli qayerda ekanligini anglamagani, his etmagani quyidagi jumalarda aniq-ravshan ifodalangan:

“Men ular jinoyatchi bo'lgan, shuning ham uchun yig'lagan, demoqchi edim. Lekin shu zahoti o'zim ham shunaqalardan ekanimni o'ylab qoldim.”³¹

Hibsonaga kirar ekan, Merso hayotiga salbiy bo'lsada, his-tuyg'ular kirib kela boshladi. Chekish xumoridan chiqa olmayotgani, Mari bilan jismoniy munosabatlari to'xtagani, umuman olganda, jismoniy ehtiyojlari qondirilmayotgani uni tushkunlikka tushira boshlardi, chunki Merso o'z hayotiga mazmunni ayni shulardan topishga intilardi – garchi topa olmagan bo'lsa ham. Arabni otib qo'yganida Merso hech qanday his-tuyg'uni tuya olmadi. Na qo'rquv, na nadomat, na o'z qilmishidan hayrat bor edi unda. To'g'ri, u arabni ataylab otib o'ldirmadi. Lekin ayni shu “nima farqi bor?” degan tushuncha bilan unga bir necha martalab o'q uzdi. Bu holat esa insoniylikning hech bir mezoniga, mantig'iga to'g'ri kelmaydi. Absurd falsafasining insoniyat uchun qay darajada xavf tug'dirishi va mantiqsiz ekanligini faylasuf Kamyu Merso misolida ko'rsatib berdi.

Merso obraziga faqat bir tomonlama yondashmay, har jihatdan ko'rib chiqadigan bo'lsak, uning hayotidagi mudhish holatlar obraz ruhiyatiga ijobiy ta'sir etib, uning qalbini uyg'ota boshlaganining guvohi bo'lamiz. Xususan, onasining o'limidan so'ng jamiyat a'zolari – eshikbon, onasining dafn marosimiga tashrif buyurganlar bilan birga qolar ekan,

³⁰ G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.B.216.

³¹ Alber Kamyu. “Begona”. “Yangi asr avlodi”. Toshkent – 2014. – B.72.

Mersoning o'zi ham qadrdonlik hissini tuyganligini aytib o'tadi va bu holatni u "juda g'alati" deya ta'riflaydi. (Bizga esa unga bu holning "juda g'alatili" ligi juda g'alati) Asosan ish yuzasidan kasbdoshlari bilan muloqotda bo'lgan, va azalik kiyimi ham yo'q Merso uchun bu chindan ham g'alati holat edi. Selestning sud jarayonida uni oqlovchi taraf bo'lib qatnashgandagi holati ham Mersoning ruhiyatiga ijobiy tuyg'ularni olib kiradi. Shuning uchun ham u "umrimda birinchi marta erkak kishini bag'rimga bosgim kelib qoldi", deydi.

Sud jarayoni o'z intihosiga yetar ekan, advokat nimalarnidir uqtirayotgan paytdagina qahramon haqiqiy kechinmalar, iztirobni o'z boshidan kechiradi:

"Faqatgina oxirida, himoyachim hali ham nimanidir uqtirayotgan paytda, qandaydir ko'chadan, sud binosining barcha devorlari-yu keng xonasidan sizib kirib, qulog'imgacha yetib kelgan burg'i tovushini – muzqaymoqfurushning aravachasi o'tib qolganini eslayman. Va shunda, endi men mahrum bo'lgan ilgarigi yoz iforlari, suyukli ko'chalar, shom osmonining bo'yoqlari, Marining kulgisi, uning ko'ylagi kabi mayda va eng aniq quvonchlarni hadya qilgan hayotning xotiralari yopirilib keldi."³²

O'linga hukm qilinganini anglarkan, kashish bilan suhbat davomida esa Mersoning oxir-oqibat o'z kechinmalarini oshkora namoyish qilganining guvohi bo'lamiz:

"Shu yerda, nimaligini o'zim ham bilmayman, ichimda nimadir toshib ketdi. Tomog'imni yirtguday baqirdim, uni so'kdim va ibodat qilishingizga zor emasman, dedim. Ridisini yoqasidan ushlab oldim. G'azabdan, shodlikdan dir-dir titrab ko'nglimda yig'ilib qolgan hamma narsani oxirigacha to'kib soldim."³³

Shu o'rinda uning "ko'nglimda yig'ilib qolgan hamma narsani" jumlaridan kelib chiqib bizda savol tug'iladi: Merso o'zi qanday shaxs? U shunchalar sovuqqon, hissizmi yoki o'z kechinmalarini ichiga yutuvchi murakkab obrazmi? U chindan ham barcha holatga shu qadar loqaydlik bilan qaraydimi? Bu befarqlik unda qachondan boshlangan? Nahotki, u tug'ilgani, bolalik kezlaridanoq shu holat ichida yashagan bo'lsa?

Savolimiz javobi Mersoning quyidagi iqrorida aks etadi:

"...men shu daqiqani, shu tongni hamisha kutib keldim. Shunda mening haqligim isbotlanadi."³⁴

Yuqorida keltirilgan daqiqa, tong – Mersoning o'limi kutilayotgan tongning daqiqalaridan dalolat. "Haqligim" so'zi ortidan esa "baribir bir kun o'lishimiz, hammasi befoyda va mantiqsiz" degan ma'no kelib chiqadi.

Ayni shu ma'no, ayni shu xulosa Mersoning asar voqealari davomidagi xatti-harakati, "nima farqi bor?" degan qarash, mulohaza uning nutqida ko'p bora qo'llanishi, qahramonning ruhiy kechinmalari va atrofga bo'lgan munosabati negizida turadi. Bir kuni baribir o'lim topishini his qilgan va o'zi aytganidek, "kutgan" Merso o'zining nima uchun yashayotganini, umuman olganda, yashayotganini ham his qilmaydi.

Shu o'rinda qahramonning mazkur ruhiyatidan kelib chiqqan holda absurdizm insonni qay darajada tushkun holatga olib kelishi, "baribir bir kuni o'lamiz", "yashashdan hech bir mantiq yo'q" kabi tushunchalar uni jismi vafot topmasidan avvaloq qalbi o'lim yoqasiga kelib qolishining guvohi bo'lamiz.

³² Alber Kamyu. "Begona". "Yangi asr avlodi". Toshkent – 2014. – B.-104.

³³ Alber Kamyu. "Begona". "Yangi asr avlodi". Toshkent – 2014. – B.-118.

³⁴ Alber Kamyu. "Begona". "Yangi asr avlodi". Toshkent – 2014. – B.-118

Bu holatning negizida esa sof diniy tushunchalar va bilimlarning mavjud emasligi, diniy tarbiyaning yetishmasligi turadi. Zero, inson bu dunyoga besabab kelmasligi haqida muqaddas kitoblarda qayd etilgan. Qur'oni Karimning Mulk surasi tarkibidagi ikkinchi oyatida ham o'lim va hayotning yaratilish sababi keltirib o'tilgan:

“U sizlarning qaysilaringiz chiroyliroq (savobliroq) amal qiluvchi ekaningizni sinash uchun o'lim va hayotni yaratgan zotdir.”³⁵

Aslida, muqaddas dinimizda insonning hayoti davomida tug'iladigan barcha savollariga eng mukammal javoblar berilgan va uning muqaddas kitobi shunisi bilan buyukki, inson zoti unga biror o'zgartirish kiritmagan, kirita olmaydi ham.

Merso va uning atrofidagi jamiyat e'tiqod qilayotgan din esa bu mukammallikdan mustasno. Bizga ma'lumki, Qur'oni Karimda xristianlikning muqaddas kitobi Injil ilohiy kitoblar sirasiga kiritiladi. Qur'onga ko'ra, Injilda Muhammad solallohu alayhi vassallamning tug'ilishi bashorat qilingan, ammo xristianlar Injilning asl matnini buzishgan. Alloh qolib, uning elchisini Xudo darajasiga olib chiqqan, dastavval hatto payg'ambarni ham o'linga mahkum qilgan qavm bora-bora Merso kabi halokatga yuz tutadi. Inson o'z qo'li bilan o'z nafs xohishlariga ko'ra o'zgartirgan din, muqaddas kitob qanday ham unga hayot mazmunini ko'rsata olsin, qanday ham qalbgaga taskin bera olsin?

Mersoning ruhoniylar bilan suhbatida ham u Xudoga ishonmasligi haqida bot-bot takrorlaydi. U bilan suhbatda tergovchi ham o'ziga huddi shu javobni oladi. Ruhoniylarning ham, tergovchining ham gaplaridan so'ng Merso qalbi zarracha bo'lsa ham biror hisni tuymaydi.

Negaki, uning o'zi ham aytganidek, hatto ruhoniylar ham “o'likka o'xshab yashaydi”. Chunki muborak islom dinimizda ham Alloh insonni butunlay bu dunyodan yuz o'girishga, uzlatga chekinishga chaqirmaydi. Zero, rasululloh solallohu alayhi vassallam ham muborak hadislarida shunday deydi:

“Oxiratni deb dunyoni, dunyoni deb oxiratni tark qiladiganlaringiz yaxshilaringiz emasdir. Yaxshilaringiz undan ham, bundan ham nasibasini olgan kishidir.” Boshqa bir hadisi sharifda mazkur mavzuda “Dunyo qanday ham yaxshi ulovdir. Uni minib olinglar. Sizlarni oxiratga yetkazadi” degan fikrlar bayon qilinadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda Mersoning Xudoga va ruhoniylarga bo'lgan munosabatini to'g'ri qabul qila olamiz. Negaki, Mersodagi ushbu holat butun bir jamiyat ongida ildiz otib bo'lgan. Merso esa ta'kidlab aytganimizdek, o'zining ong osti holati, kechinmalarini niqob tutmay namoyish qiladi.

Aslini olib qaraganda, Kamyuning o'zi ham Xudoga huddi shunday munosabatda bo'ladi. “Men ateist emasman. Men Xudo borligiga ishonmayman, lekin uning borligini his qilaman” deydi u. Ehtimol, bu jumlar ortida faylasuf “Men Xudo borligini ich-ichimdan his qilaman, Senlar yaratib olgan Xudolaringni tan olmayman” demoqchi bo'lgandir.

Aslida, Yaratuvchi borligiga ishonaman deganlarning hammasi ham o'z so'zlariga muvofiq ish tutishmaydi.

Ammo uning borligini his qilish esa insonning qalb tubida uni juda ko'plab tubanliklardan qaytaruvchi ulug' bir muhabbat borligini anglatadi.

Muxtasar qilib aytganda, ruhiy kechinmalarsiz inson inson emas.

³⁵ Qur'oni Karim ma'nolari tarjima va tafsiri. Shayx Abdulaziz Mansur. www.ziyouz.com kutubxonasi



Bosh qahramonimiz Mersodagi ayni shu paranormal ruhiyatning kelib chiqishi esa barcha uchun eng nozik va dolzarb masala bo'lib kelgan e'tiqod masalasiga borib taqaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002. 1-2 kitob. B.215.
2. Alber Kamyu. "Begona". "Yangi asr avlodi". Toshkent – 2014. – B.72.
3. Qur'oni Karim ma'nolari tarjima va tafsiri. Shayx Abdulaziz Mansur.
4. www.ziyouz.com kutubxonasi